

**GADJETLAR VA BOLALAR MIYASI: “VIRTUAL AUTIZM”
SIMPTOMLARI VA PEDAGOGIK QAROVSIKLIK O’RTASIDAGI
CHEGARA**

**ГАДЖЕТЫ И МОЗГ РЕБЁНКА: ГРАНИЦА МЕЖДУ
СИМПТОМАМИ “ВИРТУАЛЬНОГО АУТИЗМА” И
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЗАПУЩЕННОСТЬЮ**

**GADGETS AND THE CHILD’S BRAIN: THE BOUNDARY BETWEEN
‘VIRTUAL AUTISM’ SYMPTOMS AND PEDAGOGICAL NEGLECT**

Anorqulov Ozodbek Zoirjon o`g`li

Toshkent Kimyo Xalqaro Unversteti 3-kurs talabasi

Ozodbekanorqulov12@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning erta yoshdagi bolalar (0-6 yosh) neyrokognitiv rivojlanishiga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy ota-onalarni tashvishga solayotgan “autizm” belgilarining aslida biologik kasallikmi yoki gadjetlarga haddan tashqari ruju qo’yish natijasida kelib chiqqan “pedagogik qarovsizlik” (psevdo-autizm) ekanligini aniqlashdir. Tadqiqot metodologiyasi sifatida so’nggi 10 yillikdagi neyropsixologik va pedagogik ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, ekran qarshisida kuniga 4 soatdan ortiq vaqt o’tkazadigan bolalarda haqiqiy autizmga o’xshash simptomlar rivojlanadi, ammo bu holat “raqamli parhez” va jonli muloqot orqali ortga qaytarilishi mumkin.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние цифровых технологий на нейрокогнитивное развитие детей раннего возраста (0–6 лет). Основной целью исследования является определение того, являются ли признаки «аутизма», вызывающие тревогу у современных родителей, истинным биологическим заболеванием или результатом чрезмерного использования гаджетов, то есть формой «педагогической запущенности» (псевдоаутизма). В качестве методологии исследования был проведён анализ нейropsychологической и педагогической научной литературы за последние 10 лет. Полученные результаты показывают, что у детей, проводящих более 4 часов в день перед экранами, формируются симптомы, сходные с настоящим аутизмом, однако это состояние может быть обратимо при помощи «цифровой диеты» и живого общения.

ABSTRACT

This article analyzes the impact of digital technologies on the neurocognitive development of young children (aged 0–6 years). The main objective of the study is to determine whether the “autism-like” symptoms that concern modern parents are the result of a true biological disorder or a consequence of excessive gadget use, representing a form of “pedagogical neglect” (pseudo-autism). The research methodology is based on an analysis of neuropsychological and pedagogical scientific literature from the last 10 years. The results indicate that children who spend more than 4 hours per day in front of screens develop symptoms similar to true autism; however, this condition may be reversible through a “digital diet” and live social interaction.

Kalit so‘zlar: Virtual autizm, pedagogik qarovsizlik, raqamli demensiya, ekran vaqti, neyroplastiklik, nutq kechikishi, ijtimoiy izolyatsiya.

Ключевые слова: виртуальный аутизм, педагогическая запущенность, цифровая деменция, экранное время, нейропластичность, задержка речи, социальная изоляция.

Keywords: virtual autism, pedagogical neglect, digital dementia, screen time, neuroplasticity, speech delay, social isolation.

KIRISH

XXI asr bolalari “raqamli aborijenlar” deb atalmoqda. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar umuman ekran qarshisida bo‘lmasligi, 2-5 yoshlilar esa kuniga 1 soatdan oshmasligi kerak. Biroq, amaldagi vaziyat butunlay boshqacha: ota-onalar bolani ovutish, ovqatlantirish yoki shunchaki “tinch o‘tirishi” uchun 6-oyligidanoq qo‘liga smartfon tutqazmoqdalar.

So‘nggi yillarda defektolog va nevropatologlar qabuliga “bolam gapirmayapti”, “ko‘z prpragan”, “o‘z olamiga tushib qolgan” degan shikoyatlar bilan keluvchilar soni keskin oshdi. Ko‘pchilik ota-onalar buni genetik autizm deb o‘ylashadi. Ammo, muammo chuqurroq tahlil qilinganda, bu holat biologik buzilish emas, balki ijtimoiy omillar va pedagogik qarovsizlik natijasi ekanligi oydinlashmoqda. Ushbu maqola “Virtual autizm” (ekran ta’sirida yuzaga kelgan autizmsimon holat) va oddiy pedagogik e’tiborsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYA

Ushbu tadqiqot tizimli adabiyotlar tahlili metodiga asoslangan. Maqolani tayyorlashda quyidagi manbalar va usullardan foydalanildi:

Ma’lumotlar bazasi: Google Scholar, PubMed, va Psixologiya/Pedagogika bo‘yicha xalqaro jurnallarda (2018-2024 yillar oralig‘ida) chop etilgan ilmiy ishlar o‘rganildi. Ruminiyalik psixolog Marius Zamfir (Marius Zamfir) tomonidan kiritilgan “Virtual Autizm” atamasi bo‘yicha klinik kuzatuvlar va Amerika Pediatriya Akademiyasi hisobotlari. Haqiqiy (genetik) Autizm Spektri Buzilishi (ASB) va gadgetlar ta’sirida orttirilgan rivojlanish kechikishi simptomlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotga kuniga o‘rtacha 4-6 soat ekran qarshisida vaqt o‘tkazadigan 1,5 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar rivojlanish dinamikasi bo‘yicha ma’lumotlar kiritildi.

NATIJALAR

Ruminyalik kilink pisixolog M.Zamfir (2018) tomonidan 2012-2017 yillar davomda olib brogan kuzatuvlar tahlil qilinda. Tatqiqotda autism bilan shikoyat qilgan 110 nafar bolalar ishtrok etgan.Tatqiqot shuni ko`rsatadiki, autizm tashxisi qo`yilgan bolalarning 90% dan ortig`i kuniga 4-5 soatlab televizor yoki smartfon qarshisida vaqt o`tkazgan.

Klassik autism va Virtual autizmni farqlash uchun quydagi jadval yordam beradi.

Belgilar	Killasik (genetik) autizm	Virtual autizm (Ekram tasirda)
Ijtimoiy qiziqish	Deyarli yo`q, odamlarga umuman qaramaydi	Gadjet olib qoyilsa odamlarga yopishib oladi, etibor talab qiladi
Nutq	So`zlari manosiz	Nutqi yoq yoki multfilmdagi sozlarni qaytaradi
O`zgarish dinamikasi	O`zgarish juda sekin,umurbod davom etadi	Ekran to`liq cheklansa, 2-4 haftada ozgarish tezlashadi
Kelib Chiqishi	Neyrobialogik, ginetik omillar	Ijtimoiy omillar

Simptomlarning o`xshashligi: Gadjetga qaram bolalarda nomiga javob bermaslik, ko`z kontaktini o`rnatmaslik, stereotipik harakatlar va nutq rivojlanishining keskin orqada qolishi kuzatiladi.

Farqli jihati: Haqiqiy autizmdan farqli o`laroq, gadjetlar olib qo`yilib, intensiv jonli muloqot yo`lga qo`yilganda (2-3 hafta davomida), "virtual autizm" belgilari tezda yo`qola boshlaydi va bola ijtimoiy muloqotga qaytadi.

Kanadada o`tkazilgan tatqiqot shuni ko`rsatadiki, 24 va 36 oylik bolalarda ekran qarshisida bolgan vaqtning ortishi,60 oylik bolganda rivojlanish testlari pastlab ketishi bilan bog`liq.Kuniga 2 soatdan ortiq ekran tasvirni ko`rgan bolalarda til o`zgarishlari

va kognitiv qobilyatlar tengdoshlariga nisbatan 5 barobar sekinroq rivojlanadi. Hutton (2019) tomonidan o'tkazilgan MRT tahlillari shuni tasdiqladiki, ekran vaqti yuqori bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda miyaning oq moddasi butunligi buzilgan. Bu holat aynan nutq va savodxonlik uchun javob beruvchi traktlarda yaqqol sezilgan.

Fransiyada o'tkazilgan "L'Ecran" tajribasi shuni ko'rsatdiki, "Autizm" tashxisi gumon qilingan bolalarda 1 oy davomida qat'iy "Ekran parhezi" qo'llanilganda, bolalarning 78% ida ko'z kontakti tiklangan va ismiga javob berish reaksiyasi paydo bo'lgan (Dimitri Christakis, 2018 ma'lumotlariga asosan). Bu natija boladagi holat organik kasallik emas, balki orttirilgan pedagogik qarovsizlik ekanligini isbotlaydi.

Bola tildan nusxa ololmaydi. Nutq faqat jonli muloqotda, lab harakatlari va emotsiyalarni ko'rish orqali shakllanadi. Gadgetdagi nutq bola uchun shunchaki "shovqin" hisoblanadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar bolalar nevrologiyasi va pedagogikasidagi muhim muammoni — tashxislar chalkashligini yoritib beradi.

Natijalar qismida keltirilgan Hutton (2019) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 0-3 yosh oralig'ida bola miyasi tashqi stimullarga o'ta sezgir bo'ladi. Agar bola bu davrda inson yuzi va ovozi o'rniga ekrandagi tez almashinuvchi kadrlarni ko'rsa, uning miyasidagi ko'zgu neyronlari (mirror neurons) faoliyati susayadi. Natijada, bola hissiyotlarni o'qish va taqlid qilish qobiliyatini rivojlantirmaydi. Bu jarayon "Use it or lose it" (Ishlat yoki yo'qot) tamoyili asosida ishlaydi: bola jonli muloqot neyron yo'llarini ishlatmagani uchun ular atrofiya (yemirilish) ga uchraydi.

An'anaviy pedagogikada "qarovsizlik" deganda ko'chada qolib ketgan bolalar tushunilgan bo'lsa, zamonaviy tahlillar "Uy ichidagi qarovsizlik" tushunchasini o'rta tashlamoqda. Ota-onalar bolaning jismoniy ehtiyojlarini qondirib, uning ruhiy-kommunikativ tarbiyasini gadgetlarga topshirmoqda. Jadval-1 dagi ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, gadgetdan ajratilganda bolaning ijtimoiy munosabatga kirisha boshlashi — unda autizm yo'qligini, faqatgina kommunikativ chanqoqlik va pedagogik bo'shliq mavjudligini anglatadi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda shifokorlar bolaning ekran vaqtini surishtirmasdan turib, unga nootrop dorilar yozib berishmoqda. Vaholanki, JSST tavsiyalariga va Zamfir (2018) xulosalariga ko'ra, birinchi darajali "davolash" vositasi — bu raqamli izolyatsiyadir. Dori vositalari pedagogik bo'shliqni to'ldira olmaydi; ular faqat miya qon aylanishini yaxshilashi mumkin, ammo nutq va ijtimoiy ko'nikma faqat jonli muloqot orqali shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni isbotladiki, "raqamli detoks" (gadjetlarni butunlay taqiqlash) va faol jismoniy o'yinlar, ko'zga qarab gaplashish orqali bolaning miyasi qayta tiklanadi. Bu neyropastiklik (miyaning o'zgaruvchanligi) xususiyati evaziga yuz beradi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda "autizm epidemiyasi" deb atalayotgan holatning katta qismi aslida noto'g'ri tarbiya va texnologik e'tiborsizlik mahsulidir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamiyatda "autizm" tashxisi qo'yilayotgan bolalarning salmoqli qismida muammo biologik emas, balki raqamli texnologiyalarning nazoratsiz iste'moli oqibatida kelib chiqqan pedagogik qarovsizlikdir. Bolaning 0-3 yosh oralig'ida gadjetlar bilan yolg'iz qolishi uning miya neyronlari shakllanishiga to'sqinlik qilib, "virtual autizm" sindromini keltirib chiqarmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Christakis, D. A. (2018). The effects of media on young children's brain development and behavior. *JAMA Pediatrics*, 172(11), 1011-1012.
2. Hutton, J. S., Dudley, J., & Horowitz-Kraus, T. (2019). Associations Between Screen-Based Media Use and Brain White Matter Integrity in Preschool-Aged Children. *JAMA Pediatrics*, 174(1), 1-4.
3. Jamolov, J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. O'qituvchi.

4. Madigan, S., Browne, D., & Racine, N. (2019). Association Between Screen Time and Children's Performance on a Developmental Screening Test. *JAMA Pediatrics*, 173(3), 244-250.
5. Makhmudov, K. (2020). Computer literacy is a tool to the system of innovative cluster of pedagogical education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5), 71-74.
6. Small, G., & Vorgan, G. (2008). *iBrain: Surviving the Technological Alteration of the Modern Mind*. HarperCollins.
7. World Health Organization. (2019). Guidelines on physical activity, sedentary behaviour and sleep for children under 5 years of age. WHO Press.
8. Xaytmetov, R. (2020). Immanuil Kant falsafasida olam va odam muammosi. *Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi*, 5(2), 71-74.
9. Zamfir, M. (2018). The Consumption of Virtual Environment More Than 4 Hours/Day, Between 0–3 Years Old, Can Cause a Syndrome Similar with the Autism Spectrum Disorder. *Journal of Clinical Medicine*, 12(3), 24-31.